

IV MODUL.

NUTQ NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR FAOLIYAT XUSUSIYATLARI

12-Mavzu. Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalar faoliyat sohasining xususiyatlari

Reja:

1. Faoliyat haqida umumiy tushuncha.
2. Nutq kamchiliklarning o‘yin faoliyatiga ta’siri.
3. O‘yin, tasviriy, o‘quv faoliyati va bilish jarayonlarining rivojlanishi.

Taynch iboralar. Faoliyat, ehtiyoj, faollik, o‘yin faoliyati, musiqaterapiya, ertakterapiya, izoterapiya, qumterapiyasi, konstruktiv o‘yinlar, rolli-syujetli o‘yinlar.

Faoliyat deganda tirik organizmning o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faolligi tushuniladi. Insongagina xos bo‘lgan, ong bilan boshqariladigan, olamni bilishga qaratilgan ehtiyojlarni qondirish va olamni hamda odamni o‘z-o‘zini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan faolligidir.

Maktabgacha yosh davri chegaralari 3-7 yoshni o‘z ichiga oladi. Ilk bolalik davridan bu davrga o‘tish bolaning butun yashash sharoitida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

1. Uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi.
2. Bola faoliyatida nutqning roli kengayib boradi.
3. Bola muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi.

Maktabgacha tarbiya yosh davridagi bolalar psixikasi rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bir qator ehtiyojlar bilan vujudga keluvchi qarama-qarshiliklardir.

Bu ehtiyojlar:


Muloqotga bo`lgan ehtiyoj

Tashqi taassurotlarga bo`lgan ehtiyoj

Hatti-harakatga bo`lgan ehtiyoj

Maktabgacha yosh davrida faoliyatning etakchi turi – o‘yin faoliyatidir.

O‘yin – bola tomonidan kattalar dunyosining aks ettirilishi, atrofimizni o‘rab turgan dunyoni bilish yo‘lidir.





Bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalash vositasi sifatida mazmunli o‘yinlardan keng foydalanish kerak. O‘yin davomida turli xil nutq buzilishlari bo‘lgan bolalarning mavjud bo‘lgan xulq-atvor xususiyatlarini hisobga olish kerak. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘yin mustaqil, dastlabki yoki mustahkamlovchi faoliyat sifatida ham, dam olish sifatida ham amalga oshiriladi, bunda bola har tamonlama rivojlanadi.



O‘yin terapiyasi- turli xildagi o‘yin faoliyati, o‘yin mashg‘ulotlari asosida muloqotni rivojlantirish usulidir.

O‘yin terapiyasi o‘z ichiga quyidagi turdagi o‘yinlarni kiritadi:

Syujetli-rolli o‘yinlar: “Mehmon-mehmon”, “Shifokor qabulida”, “Bozorda” va hokazo.

Harakatli o‘yinlar: “Mushuk va sichqon”, “Jajji jo‘jalar” va h.k.

Nutqiy o‘yinlar: “Maqtanchoqlar tanlovi”, “Sehrli to‘tiqush”, “So‘zlar” va hokazo.

Psixokorreksion o‘yinlar bola psixologiyasidagi turli xil kamchiliklarni korreksiyalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan: “To‘xta, mushtim!”(nizoli vaziyatlarda o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi); “Mening kelajagim” (bolalarda o‘ziga baho berish qobiliyatini shakllantiradi).

Musiqiy terapiya- musiqa hamkorligidagi mashqlar va guruhli qo‘shiq aytish asosida muloqotni rivojlantirish usuli. U asosan ikki usulda amalga oshiriladi:

- **Musiqiy relaksatsiya**- musiqa jo‘rligida bola ruhan bo‘shashtirilib, his-kechinmalari yoki o‘zi istagan mavzuda suhbat quriladi. Bu usul duduqlanuvchi bolalar muskullarini bo‘shashtirish va logofobiyani bartaraf etish imkonini beradi.
- **Xo‘r bo‘lib qo‘shiq aytish**- tanish qo‘shiqni katta yoki kichik guruhlarda kuylash. Bu usul o‘z nuqsonidan uyaladigan bolalarga erkinlik beradi, chunki guruhli qo‘shiq kuylash jarayonida bolalarning diqqati unga (nuqsoniga) qaratilmaydi.

Ertak terapiyasi - har xil mazmundagi ertaklar bilan ishlash asosida muloqotni rivojlantirish usuli. Ertak terapiyasi bolalarning yoshiga, individual rivojlanish xususiyatlariga mos keladigan ertak tanlashdan boshlanadi. Ertak terapiyasini turli shaklda o‘tkazilishi mumkin. Faoliyatda muloqotni rivojlantirishda ertak terapiyasining alohida o‘rni bor. Ertak terapiyasining quyidagi usullari mavjud:


- **Stol teatri** stolda qog‘oz shakllari yordamida qog‘ozdan ertak qahramonlarini yasash va ertakni hikoya qilish asosida tashkil etiladi;
- **Qo‘g‘irchoq teatri** ertak syujeti qo‘g‘irchoqlar yordamida hikoya qilinadi, bu eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ertak qahramonlari rollarini ijro etish asosida yangi ertak to‘qish yoki tanish ertakning mantiqiy davomini to‘qish asosida amalga oshiriladi.
- **Izoterapiya** – tasviriy faoliyat asosida muloqotni rivojlantirish usuli.

Bolalarga turli mavzularda rasmlar chizdiriladi. Tasviriy faoliyat davomida bolalar bilan quyidagi yo‘nalishlarda suhbat tashkil qilinadi:

- Tasvir uchun tanlangan ob’yekt muhokama qilinadi;
- Tasviriy faoliyat jarayoni haqida so‘z yuritiladi;

Faoliyat natijasi tahlil qilinadi.

Nutq nuqsoniga ega bolalar faoliyatida shaxslararo munosabati



Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning hissiy-irodaviy va shaxsiy sohalaridagi buzilishlar nafaqat ularning faoliyatini pasaytiradi va yomonlashtiradi, balki xatti-harakatlarning buzilishi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib keladi, shuning uchun bu bolalarning emotsional-shaxsiy xususiyatlarini differentsial psixoprofilaktika va psixokorreksiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Faoliyat psixik jarayonlar rivojlanishiga ta’sir etadi. Bilish jarayonlari yoshga xos tarzda taraqqiy etadi.



Nutqiy nuqson qanchalik og‘ir bo‘lsa, umumiy rivojlanishdagi o‘zgarishlar shunchalik sezilarli bo‘ladi. Albatta, bularning barchasi bolaning shaxsiy rivojlanishiga, uning hissiy-irodaviy sohasi va muloqot qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Nutq nuqsonlarida ikkilamchi va uchlamchi og‘ishlarning paydo bo‘lishi haqida ko‘p tadqiqotlarda keltirilgan. Ikkilamchi og‘ish - bu ta’lim faoliyatining yetishmasligi, uchinchisi - ma’lum bir davrning asosiy inqirozlarini kuchaytiradigan va kommunikativ disfunksiya hodisalarini keltirib chiqaradigan shaxsiy buzilishlardir.

Og‘ir nutq nuqsonlarida faollik yetishmasligi intellektual rivojlanishni orqada qolishi bilan bog‘liqdir, o‘yinning mazmunini tushunmaslik me’yor qoidalarga amal

qilmaslik xosdir. Ularning o‘yin faoliyati taqlid va takrorlanishlar bilan kechadi. Boshqa bolalar bilan oynash jarayonida bu bolalar bo‘ysinuvchi rolini oynaydilar. Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda paydo bo‘ladigan o‘qish va yozish buzilishlari nutqning tovush tomonining etarli darajada shakllanmaganligi natijasi sifatida qaraladi. Agar bola logopedik mashg‘ulotlarini o‘z vaqtida olmagan bo‘lsa, u kelajakda savodxonlikni to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Ammo yozuvdagi xatolar har doim ham talaffuzdagi xatolarga mos kelmaydi. Masalan, kichik maktab yosh davrida b xarfini d ga almashtirish holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Nutq nuqsonining yengil darajasidagi bola savollarga javob bera oladi, rasm asosida asosiy hikoyani tuza oladi, o‘qiganlarini parcha-parcha aytib beradi, o‘zini qiziqtirgan voqealar haqida gapira oladi, ya’ni o‘ziga yaqin mavzu doirasida bayonot tuza oladi. Biroq, ayrim bolalar (individual xususiyatlariga ko‘ra) maxsus topshiriqlarni bajarishda, ma’lum bir o‘quv mavzusi bo‘yicha batafsil javoblarni talab qilinganda bunday bolalar til ko‘nikmalarining etarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadilar. (Lug‘at boyligining kamligi, fonematik idrokidagi kamchiliklar).


NTR bolalarda o‘qish jarayonida asosan xarflarni noto‘g‘ri o‘qish, taxmin qilish, o‘xshashiga almashtirishdagi xatolarni ko‘rishimiz mumkin. O‘qishda so‘zlarni boshqalarga almashtirish yoki to‘liq o‘qimaslik ham kuzatiladi, bu holat esa bolalarning lug‘at boyligi cheklanganligi, ularning ma’nolarini etarli darajada bilmasligi, shuningdek, so‘z va gaplar o‘rtasidagi aloqalarning buzilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Idrok etish jarayonida ular bezovtalikni boshdan kechiradilar, qaror qilishda ko‘plab xatoliklarni namoyon qilib, so‘zlarning harf o‘xshashligining ayrim belgilariga asoslanadi, garchi bu so‘zlar tuzilishi, shakli va grammatik ma’nosi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, qoshiq-sochiq, daraxt-baland, gul-qul....

O‘quv faoliyati jarayonida bolani maktabga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu uning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatni o‘zgartiradigan hayot bosqichi hisoblanadi. Bola 1-sinfda o‘qishga tayyor bo‘lishi kerak. 7 yoshli bolalar, birinchi navbatda, malakali iboralarni, batafsil nutqni, tayyorlov guruhi dasturida ko‘zda

tutilgan ma’lum miqdordagi bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi muhimdir. Dastlabki tuzatish ishlarisiz bolalarni umumta’lim maktabida muvaffaqiyatli o‘qitish mumkin emas. Ma’lumki, ikkilamchi og‘ishlarni tuzatishdan ko‘ra oldini olish osonroq. Shuning uchun **R.E.Levina** maktabgacha yoshdagi bolalarga profilaktik yondashuv tamoyilini ilgari surdi, bu uning amaliy yondoshish orqali nutq guruhlarida va nutqi buzilgan bolalar uchun maxsus psixokorreksion ishlarda olib borishni tavsiya qildi. Korreksion ta’limning maqsadi nafaqat asosiy nuqsonni tuzatish, balki bolalarni maktabga tayyorlashni ham o‘z ichiga oladi.

Korreksion ish tizimida og‘zaki nutqi, fonematik idrok, lug‘at boyligi va yozuv malakalari bo‘yicha ishlar rivojlantirish dasturlari va shaxs xususiyatlaridagi kamchiliklarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Eshituv xotirasini rivojlantirish masalan, 3-4 birikmadan iborat bo‘g‘inlarning berilgan ketma-ketligini takrorlashni o‘rganish, berilgan ketma-ketlikda 3-5 so‘zni yodlash va kichik matnlarni yodlashni o‘z ichiga oladi.

Logoritmika dasturi bolalarning motor-harakat rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan aniq vazifalar hal etadi:



Faoliyatning beqarorligining tashqi ko‘rinishlari turli omillar bilan belgilanadi. Bu namunani, ko‘rsatmalarni tahlil qila olmaslik, o‘ylash yoki uning barcha bosqichlarini ketma-ket amalga oshirishni rejalashtirish imkonsizligi tufayli impulsivlik va umumiy tartibsizlik bo‘lishi mumkin. Faoliyat jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni engish uchun chalg‘ish va ixtiyoriy harakatni namoyish

eta olmaslik ham qayd etilgan. Nihoyat, past emotsional barqarorlik va charchoq tufayli faoliyatning buzilishi, shuningdek, tasvir va ko‘rsatmalarni to‘liq idrok etmaslik tufayli chalkashlik bo‘lishi mumkin.

Mehnat bir tomondan ham tirikchilik manbai, ikkinchi tomondan o‘z-o‘ziga xizmat qilish va yaqinlariga (oila a’zolariga) xizmat ko‘rsatish vositasidir. Mehnatga g‘amxo‘rlik - bu o‘z yaqinlaringizga g‘amxo‘rlik qilish qobiliyati, insonning mustaqilligini va real hayotga moslashishini ta’minlaydigan ijtimoiy va maishiy kompetentsiyadir. Ijobiy shaxsiy fazilatlar shakllanganda, bunday odam atrof-muhitning tayanchiga aylanadi. Ish odatda juda aniq bilim va ko‘nikmalarni talab qiladigan kasbiy faoliyat sifatida qaraladi. Shu sababli ham ota-onalar farzandi qanday kasb egasi bo‘lishi haqida juda erta o‘ylashni boshlaydilar.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M. Logopediya. T., 2007.
- Troshin Logopsixologiya, 2006.
- Lautkina Logopsixologiya o‘quv qo‘llanma M-2001
- Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.,2013.
- Do‘stmuxamedova Sh.,Nishanova Z.,Jalilova S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.,2013.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalash vositasi nimalardan iborat?
2. Faoliyat jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni engish uchun nimalarga ahamiyat beriladi?

3. Aynan qaysi dastur bolalarning motor-harakat rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi?

4. Qaysi nutq nuqsonida o‘qish jarayonida asosan xarflarni noto‘g‘ri o‘qish, taxmin qilish, o‘xshashiga almashtirishdagi xatolarni ko‘rishimiz mumkin?